

SHAYXZODA HAQIDA

**Toshkent davlat transport universiteti “ETKM” fakulteti
EE-7 guruh talabasi Urinboyev Farrux Farkod o‘g‘li
+998939017478**

urinbayevfarid@gmail.com

**Toshkent davlat transport universiteti katta o‘qituvchisi
Tillaboyeva Osiyobegim Bekpo‘latovna**

Annotation: This article notes the childhood of Maqsud Shayxzoda, an Azerbaijani artist, who has a special place in Uzbek literature, not only as a poet, but also as a strong playwright, literary scholar and educator. It is about the artist's love of literature, his first poem and his student years. His pedagogical activity, modern works, the artist's attitude to the time are reflected.

Keywords: Creator, work, poetry, pedagogy, nation, biography, requirements of the time, worldview, Uzbek literature, political and social activity.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ozarboyjonlik ijodkor, o‘zbek adabiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega, nafaqat shoir, balki kuchli dramaturg, adabiyotshunos olim, pedagog Maqsud Shayxzodaning bolaligi haqida qaydlar keltiriladi. Ijodkorning adabiyotga muhabbati, ilk she’ri va talabalik yillari to‘g‘risida so’z boradi. Pedagogik faoliyati, zamona zayli bois yaratilgan asarlari, ijodkorning davrga munosabati aks ettiriladi.

Kalit so’zlar: Ijodkor, asar, she’riyat, pedagogika, millat, siyrat, davr taqozosi, dunyoqarash, o‘zbek adabiyoti, siyosiy-ijtimoiy faoliyat.

Kirish.

Maqsud Shayxzoda 1908-yilda Ozarbayjonning Oqtosh shahrida tavallud topib, Bokudagi oliy pedagogika institutida o‘qigan, ijodga va adabiyotga bag‘ishlagan umrining asosiy qismini esa O‘zbekiston diyorida – Toshkentda o‘tkazgan ijodkor haqida ko‘plab yozuvchilarimizning asarlarida juda iliq fikrlar yozib qoldirilgan.

Eng e’tiborli jihatni, u o‘zi ozarbayjon millatiga mansub bo‘lsa-da, o‘zbek tilida ijod qilib, shu til rivojiga hissa qo‘shgan. O‘zini Ozarbayjon va O‘zbekiston farzandi deb his qilish baxti, ikki el nazariga ham tushishdek ulkan sharaf uningga peshonasiga yozilgan bo‘lsa kerak. Ha, bu siz va biz yoshligimizdan adabiyot orqali

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

yaxshi tanigan «Jaloliddin Manguberdi» dramasi, “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi, “Toshkentnoma” dostoni muallifi Maqsud Shayxzodadir.

Muhokama va natijalar:

Inson tasavvuriga sig‘ishi qiyin bo‘lgan fikrlar tuyg‘usi, har qanday insonga hos bo‘limgan, o‘ziga xos, ilohiy tuyg‘u. Ana shunday tuyg‘ular silsilasini kuzatamiz shoir ijodida. “Yer”ning yurak urishini “Oy” qadar qulog‘i bilan shoirning o‘zidan bo‘lak, boshqa insonlar ham sezal olishi mumkinmikan, aslida. Ushbu satrlar shoirning mushohadaga boy, betakror xayolot odami va cheksiz tasavvur egasi ekanligidan dalolat beradi. O‘zbekona satrlarni o‘qiganimiz sari shoirning haqiqiy o‘zbek shoiri ekanligiga yana bir bor amin bo‘lamiz. Ijodkor tunni kuzatar ekan, tunning qaroligini o‘ziga xos o‘lchovlar bilan aniqlashga intiladi va shunday satrlarda o‘ziga xos yo‘sinda ifodalaydi: “Shuncha quyuq edi tungi qorong‘u, Hovuchlab kaft ichra siqqilik goyo”.

Maqsud Shayxzoda o‘zbek shoirlaridan Oybek va G‘ofur G‘ulomlar bilan do‘stlashdi. Ular bilan doimiy muloqotda bo‘ldi. Ular Maqsud Shayxzoda bilan nafaqat adabiyotga bo‘lgan qiziqish va badiiy ijod bilan bog‘liq masalalarda, balki hayotda ham yaqin do‘sit va maslakdosh bo‘lib qoldilar. Shoirning eng og‘ir paytalarida ham, har qanday holatda qo‘lllovchi bo‘ldilar, undan voz kechmadilar. Ayniqsa, serqirra iste’dod sohibi bo‘lgan ijodkor, she’rlar, dostonlar bilan birga yuksak baddiy mahorat bilan dramalar yarata oldi. To‘g‘ri, shoir umrining oxirgi paytalarida yozishga kirishgan, baxtga qarshi, tugallanmay qolgan asarlari ham bo‘ldi. Biroq, uning “Mirzo Ulug‘bek”, “Jaloliddin Manguberdi” kabi she’riy dramalari bilan bir qatorda, doston va she’riy to‘plamlari, o‘zbek millatining o‘lmas ma’naviy merosiga aylanib qolganligi mubolag‘a emasdir. Shuni ham aytish mumkinki, Oybek va akademik shoir G‘ofur G‘ulom, o‘z vaqtida, “Jaloliddin Manguberdi” (1944) tarixiy dramasiga yuksak baho berar ekanlar, ijodkor o‘z asarida yurt ozodligi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan Xorazm shohining mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi kurashi tarixini aniq va badiiy obrazlarda haqqoniy tasvirlab bergenligini ta’kidlaganlar:

“Tarixiy jarayonning haqiqiy mazmunini, uning ichki ma’nosini” ochib bergen, “Kompozitsiyasi pishiq, dramatik to‘qnashuvlarga boy bir asar. Voqealari jonli va shiddatli ravishda bayon etiladi. Intriga kuchli, o’tkir va original. Drama fikr va hikmatga boy, baland ruhli, baquvvat she’r bilan yozilgan”, -[2. 184.] degan edilar. 1945-yilda Hamza nomidagi o‘zbek davlat drama teatrida sahna yuzini ko‘rdi. 1946-yillarda ushbu dramadan ayrim parchalar “Armug‘on” to‘plamida bosmadan

ISSN (E): 2181-4570 ResearchBib Impact Factor: 6,4 / 2023 SJIF(2023)-3,778 Volume-1, Issue-11

chiqarilgan. Ko‘p o‘tmay asar sahnadan olinib, Maqsud Shayxzoda esa qamaladi. Uning ushbu asariga o‘tmish ideallashtirilgan degan siyosiy ayb qo‘yiladi va mol-mulki musodara etiladi. Buyumlar orasida ushbu tarixiy dramaning qo‘lyozmasi ham bor edi. Qamoqdan oqlanib qaytgandan so‘ng muallif o‘zi yozgan asar qo‘lyozmasini ancha vaqt qidirib sarson bo‘ldi va nihoyat, asarning bir nusxasini topishga tuyassar bo‘ldi. Asarning to‘la matni shoir vafotidan so‘ng ilk bor uning vatani-Bokuda ozarbayjon tilida nashrdan chiqadi. 1988-yilda esa “Boqiy dunyo” kitobida o‘zbek tilida nashr etiladi. XX asrning 60-yillarda yozilgan tarixiy asarlar biron-bir rasmiy tashkilotlar tomonidan e‘tirof etilmay turgan bir paytda Maqsud Shayxzoda hech bir ikkilanmay yana bir tarixiy asarga qo‘l uradi. U buyuk shaxs, shoh va olim, yulduzlar ilmi muhandisi Mirzo Ulug‘bek haqidagi she’riy dramasini yozishga kirishdi.

Xulosa:

Maqsud Shayxzoda o‘z asarida buyuk ajdodimizning hayotini bor haqiqatlari bilan olib berishni o‘z oldiga maqsad qilib oladi. U Mirzo Ulug‘bekning fojeaviy hayoti, ilm yo‘lidagi intilishlari, ma’shum davrdagi ijtimoiy hayotning zulmkorligi va qancha-qancha ulug‘beklarning uning qurbaniga aylanganligini yorqin obrazlari orqali ko‘rsatib bera oldi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Zokirov M. Maqsud Shayxzoda. Adabiy tanqidiy ocherk, T., 1969 y.
2. Yusuf Shomansur. Shayxzoda — bunyodkor shoir, T., 1972 y. - 179 b.
3. G‘afurov I., O‘rtoq shoir. Maksud Shayxzoda ijodiyoti, T., 1975 y. - 215 b.
4. Maksud Shayxzoda zamondoshlari xotirasida, T., 1983 y.
5. XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi, T., 1999 y. – 25 b.
6. Shayxzoda Maksud. Shoir qalbi dunyoning tinglari (Tanlangan asarlar) // Toshkent, „Nihol“, 2008. - 28 b.
7. Abdujalilova M. Maqsud Shayxzoda hayoti va ijodining o‘zbek milliy adabiyotidagi tutgan o‘rnii T., 2022 y. - 1198 b. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences ISSN 2181-1784.
8. Abdujalilova M. Maqsud Shayxzoda - Ikki xalq dilbandi, T., 2022 y. – 284 b. Academic Research in Educational Sciences Volume 3. Multidisciplinary Scientific Journal October, 2022.